

SAID AHMAD SATIRASI TURK TILIDA

Jurakulov Kuvonchbek Naim o'g'li

Tel: +998939946461; Email:

[TDSHU stajyor-o'qituvchisi, juraqulovquvonchbekg@mail.com](mailto:juraqulovquvonchbekg@mail.com)

Badiiy tarjima – shunchaki soʻzlar almashinuvi emas, balki muallif uslubi va asar ruhini boshqa bir ijtimoiy-madaniy muhitga koʻchirish sanʼatidir. Said Ahmad asarlaridagi oʻtkir hajv, xalqona iboralar va oʻzbekona pichinglarni tarjimada saqlab qolish tarjimondan nafaqat til bilishni, balki har ikki xalqning maishiy hayotini chuqur his qilishni talab etadi. Quyidagi tahlilda adib hikoyalardagi oʻziga xos iboralarning turkcha variantlari misolida badiiy adekvatlik va uslubiy muvaffaqiyatlar koʻrib chiqiladi.

– *Qaydam. Bir loʻli xotin bola koʻrdi, degandek gap boʻlgandi shekilli.*¹

– *Nereden bileyim, ama orada bir çingene kadının doğum yaptığı kulağıma çalınmıştı bir ara, dedi.*²

Avvalo, oʻzbek tilidagi “*Qaydam*” soʻzi soʻzlashuv nutqida “*bilmadim*”, “*bilmadim-ov*” kabi shubha va bilmaslikni ifodalaydi. Tarjimon buni turk tiliga “*Nereden bileyim*” (*Qayerdan bilay*) shaklida oʻgirgan. Bu tanlov turk tilida suhbatdoshning savoliga javob berishda biroz beparvolik yoki aniq maʼlumotga ega emaslikni koʻrsatuvchi juda tabiiy muqobildir. Leksik va frazeologik jihatdan eng eʼtiborli qism “*bola koʻrdi, degandek gap boʻlgandi*” birikmasining tarjimasidir. Oʻzbek tilida “*bola koʻrdi*” iborasi “*farzandli boʻldi*” yoki “*tugʻdi*” maʼnosida ishlatiladi. Tarjimon buni turk tilida “*doğum yaptığı*” (*tugʻruq qilgani*) deb aniqroq bergan. Shuningdek, oʻzbek tilidagi “*gap boʻlgandi shekilli*” (*taxminan shunday gap*

¹ Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 6.

² Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 89.

eshitilgan edi) iborasi turk tiliga “*kulağima çalınmıştı*” (*qulog‘imga chalingan edi*) frazeologizmi orqali o‘girilgan. Bu yerda tarjimon o‘ta mahorat ko‘rsatgan, chunki bu ibora har ikki tilda ham tasdiqlanmagan, tasodifan eshitilgan xabarlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi “*lo‘li xotin*” birikmasi turk tilida “*çingene kadın*” deb berilgan. Bu so‘zlar har ikki xalqning madaniyatida etnik guruhni bildirish bilan birga, ma’lum bir ijtimoiy muhitni ham tasvirlaydi va tarjimada o‘z funksiyasini to‘liq saqlab qolgan.

–*Meni laqillataman, deb o‘ylamang. Bu bitta fotoapparat bilan bitadigan ish emas.*³

– *Benim bu tür laflara karnım tok. Bu bir fotoğraf makinesiyle bitecek kolay iş değil.*⁴

O‘zbek tilidagi matnda qo‘llanilgan “*Meni laqillataman, deb o‘ylamang*” jumlasida sodda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noga ega. Tarjimon buni turk tiliga “*Benim bu tür laflara karnım tok*” (*Mening bunday gaplarga qornim to‘q*) degan kuchli frazeologik ibora bilan o‘girgan. Bu yerda o‘zbek tilidagi fe’liy harakat turk tilida barqaror birikma orqali berilgani tarjimaning badiiy qiymatini oshirgan, chunki bu ibora turk madaniyatida “*meni alday olmaysan, men tajribaliman*” degan ma’noni juda aniq ifodalaydi. Jumlaning ikkinchi qismidagi “*bitadigan ish emas*” birikmasi turk tilida “*bitecek kolay iş değil*” shaklida berilgan. Bu yerda o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan “*kolay*” (*oson*) so‘zining qo‘shilishi tarjimada mantiqiy urg‘uni kuchaytirgan. Ya’ni, bu ish shunchaki bitta fotoapparat bilan bitmasligi emas, balki bu masalaning ancha murakkab va jiddiy ekanligi urg‘ulanmoqda. So‘z tanlash nuqtai nazaridan, o‘zbek tilidagi “*laqillatish*” so‘zi so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, tarjimada uning o‘rniga turk tilida yanada obrazliroq va emotsional bo‘yoqdorligi yuqori bo‘lgan “*karnı tok*” iborasining tanlanishi muvaffaqiyatli chiqqan. Bu o‘zgarish tarjimaning asliga qaraganda bir oz keskinroq va ishonchliroq chiqishiga xizmat qilgan.

Bay-bay-bay! Kelin degani ham shundoq latta qo‘g‘richoq bo‘ladimi?

³ Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 7.

⁴ O‘zbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 90.

*Aman, Tanrım! Gelin dediğin böyle mi olur? Kumaştan yapılmış kukla gibi, vallahi.*⁵

Ushbu parchani tarjimashunoslikning leksik-semantik adekvatlik va pragmatik adaptatsiya mezonlari asosida tahlil qilinganda, tarjimonning matn ruhini saqlashga intilgani, biroq ayrim o‘rinlarda so‘z tanlashda uslubiy g‘alizlikka yo‘l qo‘ygani ko‘rinadi. "Bay-bay-bay!" undovining turk tilidagi "Aman, Tanrım!" iborasi bilan berilishi funktsional jihatdan juda aniq tanlangan, chunki u asl matndagi hayrat va kinoya qorishig‘ini to‘liq qoplay oladi deyishimiz mumkin. Shuningdek, "Gelin dediğin..." sintaktik qurilmasi ham turk nutq madaniyati uchun tabiiy yangrab, muallifning ritorik munosabatini aniq yetkazib bergan. Biroq, markaziy obraz hisoblangan "latta qo‘g‘irchoq" birikmasining "kumaştan yapılmış kukla" shaklida o‘g‘irilishi leksik tanlov nuqtayi nazaridan zaif hisoblanadi. O‘zbek tilidagi "latta" komponenti bu yerda materialni emas, balki shaxsning irodasizligi va jonsizligini ifodalovchi ko‘chma ma‘no yukiga ega. Turkcha variant esa o‘ta tavsifiy bo‘lib, badiiy tasvirni texnik xususiyat darajasiga tushirib qo‘ygan. Tarjimashunoslikda bu kabi holatlar matnning emotsional-estetik yukini kamaytiradi. Ushbu tarjimini yanada maqsadga muvofiq qilish uchun turk tilidagi tayyor idiomatik birlik "bez bebek" birikmasidan foydalanish lozim edi. Bu variant nafaqat so‘zning lug‘aviy ma‘nosini, balki uning madaniy-estetik obrazini ham qayta tiklagan bo‘lur edi. Xulosa qilib aytganda, tarjimon so‘zning denotativ ma‘nosiga yopishib qolgani sababli, muallif uslubiga xos bo‘lgan xalqona kesatiqning badiiy kuchi biroz xiralashgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tarjimon o‘zbek tilidagi sodda so‘zlashuv iboralarini turk tilidagi muqobil frazeologizmlar (masalan, "karnı tok") bilan boyitib, matnning ta’sirchanligini oshirishga erishgan. Biroq, "latta qo‘g‘irchoq" kabi obrazli birikmalarning so‘zma-so‘z o‘g‘irilishi ayrim o‘rinlarda badiiy nazokatning yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, tarjima Said Ahmad ijodining turk kitobxoniga tushunarli bo‘lishini ta’minlasa-da, milliy qiyofani

⁵ O‘sha asar. – S. 98.

to'liq saqlash uchun lug'aviy ma'nodan ko'ra, ko'chma ma'no va madaniy kontekstga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxari:

1. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 128.
2. Durmuş İ. Üslup. cilt II. – İstanbul: TDV İslam ansiklopedisi, 2012. – S. 383.
3. Huyugüzel Ö.F. Eleştiri terimler sözlüğü. – İstanbul: Dergah yayınları, 2018. – S. 518-519.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 66.
5. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 45.
6. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 70.
7. Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 7.